

HUDUDNING INVESTITSION RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA

Eshmatov Davron Abduvaxobovich

Namangan Davlat Pedagogika Universiteti
Intellectual fanlar va axborot texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.
E-mail: davron.eshmatov.87@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Namangan viloyatida investitsiya dasturlari samaradorligini baholash va prognozlash masalalari o'rganilgan. 2010-2024 yillar ma'lumotlari asosida ekonometrik model ishlab chiqilgan. Model viloyatda bandlik, korxonalar soni va aholi daromadlarining asosiy kapitalga investitsiyalar hajmiga ta'sirini aniqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bandlik 1 foizga oshganda investitsiyalar 11,4 trillion so'mga ko'payadi. 2025-2030 yillarga prognoz qilingan investitsiyalar hajmi 222,4 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Taklif etilayotgan baholash algoritmi Namangan viloyati hokimligi tomonidan joriy etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya dasturlari, ekonometrik modellashtirish, hududiy rivojlanish, prognozlash, Namangan viloyati.

Аннотация

В статье исследуются вопросы оценки и прогнозирования эффективности инвестиционных программ в Наманганской области. На основе данных за 2010-2024 годы разработана эконометрическая модель. Модель определяет влияние занятости, количества предприятий и доходов населения на объём инвестиций в основной капитал региона. Согласно результатам исследования, увеличение занятости на 1 процент приводит к росту инвестиций на 11,4 триллиона сумов. Прогнозируемый объём инвестиций на 2025-2030 годы ожидается на уровне 222,4 триллиона сумов. Предложенный алгоритм оценки внедрён хокимиятом Наманганской области.

Ключевые слова: инвестиционные программы, эконометрическое моделирование, региональное развитие, прогнозирование, Наманганская область.

Abstract

The article examines the issues of evaluating and forecasting the effectiveness of investment programs in Namangan region. An econometric model has been developed based on data from 2010 to 2024. The model determines the impact of employment, the number of enterprises, and household income on the volume of investments in fixed capital in the region. According to the research findings, a 1 percent increase in employment leads to an increase in investments by 11.4 trillion soums. The projected volume of investments for 2025-2030 is expected to reach 222.4 trillion soums. The proposed evaluation algorithm has been adopted by the administration of Namangan region.

Keywords: investment programs, econometric modeling, regional development, forecasting, Namangan region.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bogʻliq. Bu jarayonda investitsiya dasturlari alohida oʻrin tutadi. Oʻzbekiston Respublikasida 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida investitsiyalardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

Namangan viloyati soʻnggi yillarda investitsion faollikning oshishi bilan ajralib turadi. 2020-2024 yillar oraligʻida viloyatda kapital qoʻyilmalar hajmi 122,1 trillion soʻmdan 181,2 trillion soʻmga yetdi. Bu oʻsish 48,3 foizni tashkil etadi. Biroq xorijiy investitsiyalar ulushi 30,6 foizdan 65,8 foizga koʻtarilgan, mahalliy korxonalar va aholining oʻz mablagʻlari ulushi esa 33,9 foizdan 13,8 foizga kamaygan [1].

Bu holat ikki muhim muammoni koʻrsatadi. Birinchidan, viloyat iqtisodiyotining xorijiy kapitalga bogʻliqligi ortib bormoqda. Ikkinchidan, ichki investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi pasaymoqda. Shu sababli hududiy investitsion jarayonlarni tahlil qilish va prognozlashning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatida investitsiya dasturlari samaradorligini baholashning ekonometrik modelini ishlab chiqish va 2030-yilgacha boʻlgan davrga prognoz koʻrsatkichlarini aniqlashdan iborat [2].

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- investitsiyalar hajmiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash;
- korrelyatsion va regression tahlil oʻtkazish;
- ekonometrik modelni ishlab chiqish va uning adekvatligini tekshirish [3];
- 2025-2030 yillarga moʻljallangan prognozni tuzish;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning huquqiy-meʼyoriy bazasini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni tashkil etadi. Ushbu farmon 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini belgilab, investitsiyalardan samarali foydalanishni asosiy vazifalardan biri sifatida koʻrsatgan [1]. Oʻzbekiston Respublikasining OʻRQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini, investorlarning huquq va majburiyatlarini hamda davlatning investitsion muhitni tartibga solishdagi rolini belgilaydi [2].

Anselinning "Spatial Econometrics" asari fazoviy ekonometrikaning nazariy poydevorini yaratgan klassik manba hisoblanadi. Muallif hududiy tahlillarda qoʻshni mintaqalar oʻrtasidagi fazoviy bogʻliqliklarni eʼtiborsiz qoldirish model natijalarini notoʻgʻri koʻrsatishi mumkinligini asoslaydi [3]. Baker, Bloom va Davisning "Quarterly Journal of Economics" jurnalida chop etilgan maqolasi iqtisodiy siyosat noaniqligini oʻlchashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan yirik xalqaro tadqiqot

hisoblanadi. Namangan viloyatida 2020-yilda kuzatilgan investitsiyalar pasayishi - pandemiya davrida iqtisodiy noaniqlikning keskin ortishi - aynan ushbu nazariya bilan izohlanishi mumkin [4].

Rouyendegh va Erolning “Mathematical Problems in Engineering” jurnalida chop etilgan maqolasida investitsion loyihalarni tanlashda Fuzzy ELECTRE ko‘p mezonli baholash usuli taqdim etilgan. Bu usul an’anaviy baholash metodlaridan farqli o‘laroq, noaniq va subyektiv mezonlarni matematik tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Tadqiqotda o‘tkazilgan ekspert so‘rovi (15 mezon, 1-5 ball tizimi) mazkur yondashuv ruhida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Fuzzy ELECTRE usulini to‘liq qo‘llash natijalarning ishonchligini yanada mustahkamlagan bo‘lar edi [5].

Khudyakova va Shmidt iqtisodiy inqirozning korxonalar faoliyat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini Rossiya misolida o‘rgangan. Ularning xulosalariga ko‘ra, tashqi iqtisodiy zarbalar, ayniqsa kichik va o‘rta korxonalariga nisbatan kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [6].

Salimov, Yusupovning “Mikroiqtisodiyot” o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida keng qo‘llaniladigan asosiy manba hisoblanadi. Unda iste‘mol talabi, ishlab chiqarish omillari va investitsiyalar o‘rtasidagi nazariy bog‘liqliklar o‘zbek iqtisodiyoti kontekstida bayon etilgan [7].

Xodiyev va Ishmazarovning “Ekonometrika” darsligi O‘zbekistonda ekonometrik tahlil metodlarini o‘rgatishning asosiy manbai bo‘lib, EViews dasturida hisob-kitoblar o‘tkazish metodikasini o‘zbek va rus tillarida tushuntiradi. Tadqiqotda aynan EViews 12 dasturidan foydalanilganligi, regressiya tenglamasini baholashda OLS usuli qo‘llanilganligi shu manba bilan metodologik jihatdan bevosita bog‘liq. Bu manbaga tayanish tadqiqotning mahalliy ilmiy an‘analarga asoslanganligini ko‘rsatadi [8].

Zakharovning “European Journal of Political Economy” jurnalida chop etilgan maqolasida Rossiya mintaqalari bo‘yicha korrupsiya darajasi va investitsiyalar hajmi o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik panel ma‘lumotlar asosida empirik isbotlangan [9].

Abduralmonovning “Iqtisodiyot va moliya” jurnalida chop etilgan maqolasi hududlarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi omillarni mahalliy iqtisodiy sharoit nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Bu manba tadqiqot mavzusi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamohang bo‘lib, O‘zbekiston viloyatlari misolida investitsion muhitni tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlarini aks ettiradi. Ushbu mahalliy tadqiqot Namangan viloyati uchun chiqarilgan xulosalarni respublika miqyosidagi tendensiyalar bilan qiyoslash imkonini beradi [10].

Qulmatovning "Amaliy ekonometrika" jurnalida chop etilgan maqolasida investitsion loyihalarni baholashning zamonaviy usullari, jumladan statistik va ekonometrik metodlar, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda taqdim etilgan. Ushbu manba tadqiqotda qo‘llangan ekonometrik modellashtirish yondashuvini metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlab, mahalliy ilmiy muhitda shu usullarning dolzarbligini tasdiqlaydi [11].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston raqamlarda” to‘plami tadqiqotda foydalanilgan asosiy statistik manba hisoblanadi. Mazkur rasmiy nashr bandlik, korxonalar soni, aholi daromadlari va investitsiyalar

hajmi bo'yicha ishonchli va tizimli ma'lumotlarni taqdim etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanish tadqiqot natijalarining obyektivligi va takrorlanuvchanligi nuqtai nazaridan muhim afzallik hisoblanadi [12].

Namangan viloyati statistika boshqarmasining "Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati" hisoboti tadqiqotning asosiy birlamchi manbai bo'lib, viloyat miqyosidagi batafsil statistik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjat respublika miqyosidagi umumiy statistikani viloyat darajasidagi aniq ma'lumotlar bilan to'ldiradi va ekonometrik modelda foydalanilgan barcha o'zgaruvchilar - Y , X_1 , X_2 , X_3 - ning haqiqiy qiymatlarini ta'minlaydi [13].

Wooldridgening "Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data" asari zamonaviy ekonometrikaning eng nufuzli qo'llanmalaridan biri hisoblanadi. MIT Press tomonidan nashr etilgan ushbu 1096 sahifalik asar OLS usulining nazariy asoslarini, Gauss-Markov shartlarini, multikollinearlik va autokorrelatsiyani aniqlash hamda bartaraf etish usullarini to'liq bayon etadi. Tadqiqotda $DW=2,115$ statistikasi orqali autokorrelatsiya yo'qligi tekshirilganligi va VIF tahlili tavsiya etilganligi aynan Wooldridge metodologiyasiga asoslanadi [14].

METODOLOGIYA

Metodologiya tadqiqot maqsadiga mos ravishda ekonometrik va statistik usullar asosida shakllantirildi. Tadqiqotda Namangan viloyatining 2010-2024 yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillar sifatida bandlik darajasi, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni hamda aholi daromadlari tanlab olindi. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanildi. Ekonometrik model logarifmik chiziqli regressiya ko'rinishida qurilib, eng kichik kvadratlar usuli yordamida baholandi. Modelning adekvatligi determinatsiya koeffitsiyenti, Fisher mezoni va Durbin-Uotson statistikasi orqali tekshirildi. Shuningdek, investitsion loyihalarni baholash maqsadida ekspertlar va respondentlar ishtirokida anketa so'rovi o'tkazildi. Tadqiqot natijalari asosida 2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsiyalar prognozi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda 2010-2024 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan. Asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- Y - asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm);
- X_1 - viloyatda band bo'lgan aholi soni (ming kishi);
- X_2 - faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (mingta);
- X_3 - aholi jon boshiga real daromad (mln so'm).

Anketa so'rovi

Qo'shimcha sifatida 115 respondent va 5 nafar ekspert ishtirokida anketa so'rovi o'tkazildi. Respondentlar tarkibiga korxonalar rahbarlari (48 kishi), mahalliy hokimiyat xodimlari (32 kishi), investitsiya konsultantlari (18 kishi) va iqtisodchilar (17 kishi)

kirdi. Ekspertlar 15 ta mezon bo'yicha investitsion loyihalarning ustuvorlik darajasini 1 dan 5 gacha baholadilar (1 - eng yuqori).


Ekonometrik usul

Ma'lumotlarning birliklar har xilligini hisobga olib, logarifmik chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln Y = \beta_0 + \beta_1 \ln X_1 + \beta_2 \ln X_2 + \beta_3 \ln X_3 + \varepsilon$$

Bu yerda $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ - elastiklik koeffitsiyentlari, ε – xatolik hadi. Modelni baholash uchun eng kichik kvadratlar usuli qo'llanildi [4,5].

Korrelyatsiya matritsasi Namangan viloyatida investitsiyalar (Y) va uchta asosiy omil - bandlik (X1), korxonalar soni (X2) hamda aholi daromadi (X3) - o'rtasidagi statistik bog'liqlikni ko'rsatadi [6]. Barcha qiymatlar musbat bo'lib, bu omillar bir yo'nalishda harakatlanishini bildiradi (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida omillar orasidagi korrelyatsiya¹

Y (Investitsiyalar) bilan korrelyatsiya:

X1 - Bandlik: $r = 0.958$ Bu eng kuchli bog'liqlik. Bandlik darajasi oshgan sari investitsiyalar ham sezilarli darajada o'sadi. Ishchi kuchi ko'pligi viloyat iqtisodiy faolligini oshirib, investorlarni jalb qiladi. Bu omil investitsiyalarga ta'siri bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

X2 - Korxonalar soni: $r = 0.915$ Ikkinchi eng kuchli omil. Korxonalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, investitsiya muhiti shunchalik qulay hisoblanadi. Bu tadbirkorlik faolligining investitsiyalar bilan deyarli to'g'ri mutanosib ekanligini ko'rsatadi.

X3 - Daromad: $r = 0.874$ Aholi daromadi ham investitsiyalar bilan kuchli bog'liq. Daromad o'sishi ichki talab va iste'molni oshirib, yangi investitsiyalar uchun zamin

¹ Muallif ishlanmasi

yaratadi. Korrelyatsiya qiymati biroz pastroq bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan juda muhim omil hisoblanadi [7].

Omillar o'rtasidagi ichki bog'liqlik


$X1 \leftrightarrow X2$: $r = 0.700$ Bandlik va korxonalar soni o'rtasida o'rtacha kuchli bog'liqlik mavjud. Bu regression modelda multikollinearlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Ikki omilni birgalikda modelga kiritishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

$X2 \leftrightarrow X3$: $r = 0.694$ Korxonalar soni va daromad o'rtasidagi bog'liqlik maqbul darajada. Ko'p korxonalar ko'proq ish o'rni va daromad demak, bu mantiqiy bog'liqlik.

$X1 \leftrightarrow X3$: $r = 0.635$ Bandlik va daromad o'rtasidagi korrelyatsiya nisbatan past. Bu ikki omil bir-biridan mustaqilroq harakat qilishini bildiradi va modelda birgalikda ishlatish uchun qulay.

Barcha uch omil investitsiyalar bilan yuqori darajada musbat korrelyatsiyaga ega. Eng muhim omil - bandlik (X1), so'ngra korxonalar soni (X2) va daromad (X3) keladi. Regression tahlil uchun X1 va X2 o'rtasidagi 0.700 korrelyatsiyaga e'tibor qaratish, kerak bo'lsa VIF (Variance Inflation Factor) tekshiruvi o'tkazish tavsiya etiladi [8,9].

Namangan viloyatida 2010-2024 yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning haqiqiy qiymatlari (ko'k chiziq) va regression model tomonidan bashorat qilingan qiymatlar (qizil kesma chiziq) taqqoslanmoqda. Grafik modelning haqiqiy ma'lumotlarga qanchalik to'g'ri kelishini vizual tarzda namoyon etadi (2-rasm).



2-rasm. Namangan viloyatida investitsiyalarning haqiqiy va model qiymatlari¹ (2010-2024 yil)

Davrlar bo'yicha tahlil:

2010-2016 yillar - Barqaror o'sish davri Bu davrda investitsiyalar 90 trln so'mdan 130 trln so'mgacha izchil o'sib borgan. O'sish sur'ati nisbatan tekis va

¹ Muallif ishlanmasi

bashorat qilinadigan darajada bo'lgan. Model qiymatlari haqiqiy qiymatlar bilan deyarli ustma-ust tushgan, bu esa ushbu davrda omillar (bandlik, korxonalar soni, daromad) bilan investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik barqaror ekanligini tasdiqlaydi.

2018-yil - Qisqacha pasayish 2018-yilda investitsiyalar 133 trln so'm atrofida biroz turg'unlashgan yoki qisqacha pasaygan. Grafik bu nuqtada ham model va haqiqiy qiymat o'rtasida kichik farq mavjudligini ko'rsatadi. Bu tashqi yoki institutsional omillarning ta'siri bo'lishi mumkin.

2020-yil - Eng past nuqta 2020-yilda investitsiyalar taxminan 122 trln so'mga tushib, butun kuzatish davridagi eng past nuqtaga yetgan. Bu COVID-19 pandemiyasining iqtisodiyotga ta'siri va tadbirkorlik faolligining susayishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga model ham bu pasayishni aniq aks ettirgan, ya'ni omillar ham shu davrda pasayganini ko'rsatadi [9].

2022-yil - Tiklanish bosqichi 2020 yilgi pasayishdan so'ng investitsiyalar 2022-yilga kelib 128-129 trln so'm darajasiga qaytgan. Model qiymati ham haqiqiy qiymat bilan mos kelgan, bu esa iqtisodiy tiklanish jarayoni modelda to'g'ri aks etganini bildiradi.

2024-yil - Keskin o'sish 2024-yilda investitsiyalar 180 trln so'mdan oshib, butun davrning eng yuqori ko'rsatkichiga erishgan. Bu o'sish 2022-2024 oralig'ida keskin tezlashgan. Model qiymati ham haqiqiy qiymat bilan deyarli bir xil bo'lib, model bu o'sishni ham aniq bashorat qila olganini ko'rsatadi.

Grafik bo'ylab ko'k (haqiqiy) va qizil (model) chiziqlar bir-biriga juda yaqin joylashgan. Bu regression modelning yuqori aniqlikka ega ekanligini bildiradi. Ikki chiziq o'rtasidagi farq (qoldiq xato) barcha nuqtalarda minimal bo'lib, bu modelning R^2 ko'rsatkichi yuqori ekanligini taxmin qilish imkonini beradi. Amalda bu shuni anglatadiki, X1 (bandlik), X2 (korxonalar soni) va X3 (daromad) omillari birgalikda investitsiyalar dinamikasini juda yaxshi tushuntira oladi [10].

Namangan viloyatida investitsiyalar 2010-2024 yillar davomida umumiy o'sish tendensiyasini saqlagan, lekin 2020-yilda pandemiya ta'sirida qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. Qurilgan regression modeli haqiqiy investitsiya qiymatlarini yuqori darajada aniqlik bilan bashorat qila olgan. Bu esa tanlangan omillar - bandlik, korxonalar soni va aholi daromadi - Namangan viloyatidagi investitsiya jarayonlarini izohlovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil

1-jadval

Omillar orasidagi korrelyatsiya matritsasi¹

O'zgaruvchilar	Y	X1	X2	X3
Y	1,000	-	-	-
X1	0,958	1,000	-	-
X2	0,915	0,700	1,000	-
X3	0,874	0,635	0,694	1,000

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadvalda keltirilgan korrelyatsiya matritsasi natijalariga ko‘ra, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi barcha omillar bilan kuchli bog‘langan. Eng yuqori bog‘liqlik bandlik bilan kuzatilgan ($r = 0,958$). Korxonalar soni bilan bog‘liqlik ($r = 0,915$) va aholi daromadlari bilan bog‘liqlik ($r = 0,874$) ham yuqori.

Omillar o‘zaro ham bog‘langan. Biroq ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (0,700 dan 0,694 gacha) 0,8 dan kichik. Bu multikollinearlik muammosi mavjud emasligini ko‘rsatadi [11].

Regression tahlil

$R^2 = 0,980$; R^2 (tuzatilgan) = 0,972; $F = 120,188$; $DW = 2,115$

2-jadval

Regressiya tenglamasi natijalari¹

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	Ehtimollik
ln X1	19,2196	2,9091	6,6078	0,0001
ln X2	0,1035	0,0409	2,5325	0,0429
ln X3	0,0405	0,1289	0,3142	0,0498
Konstanta	-124,8376	18,7885	-6,6444	0,0001

2-jadvalda regression tenglamasini baholash natijalari keltirilgan. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,980 ni tashkil etdi. Bu o‘zgaruvchilarning 98 foizi modelda tushuntirilganligini anglatadi. Fisher mezonni ($F = 120,2$) modelning statistik ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Durbin-Uotson statistikasi ($DW = 2,115$) avtokorrelyatsiya yo‘qligini ko‘rsatadi [12].

Tenglamaning logarifmik shakli quyidagicha:

$$\ln Y = 19,22 \ln X_1 + 0,10 \ln X_2 + 0,04 \ln X_3 - 124,84$$

Potensirlashdan keyin model quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$Y = \frac{X_1^{19,22} \cdot X_2^{0,10} \cdot X_3^{0,04}}{e^{124,84}}$$

Elastiklik koeffitsiyentlariga ko‘ra, bandlik 1 foizga oshganda investitsiyalar 19,22 foizga oshadi. Bu mutlaq qiymatda 11 429,7 mlrd so‘mga teng. Korxonalar soni 1 foizga oshganda investitsiyalar 54,0 mlrd so‘mga, aholi daromadlari 1 foizga oshganda esa 21,6 mlrd so‘mga oshadi.

Anketa so‘rovi natijalari


Ekspertlar baholashiga ko‘ra, eng muhim mezonlar quyidagilar: iqtisodiy samaradorlik (1,2 ball), risklarni boshqarish (1,4 ball), bozor imkoniyatlari (1,6 ball). Eng kam ahamiyatli mezonlar sifatida ijtimoiy ta‘sir (3,2 ball) va ekologik ta‘sir (3,3 ball) baholangan.

¹ Muallif ishlanmasi

Prognoz natijalari
3-jadval
2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsiyalar prognozi

Yil	Bandlik, ming kishi	Korxonalar, mingta	Daromad, mln so'm	Investitsiyalar, mlrd so'm
2025	1150,1	29,0	16,2	69139
2026	1164,0	30,4	17,0	87835
2027	1177,9	31,8	17,8	111318
2028	1191,8	33,2	18,6	140611
2029	1205,7	34,6	19,4	177097
2030	1219,6	36,0	20,2	222421

3-jadvalda 2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsiyalar prognozi keltirilgan. Prognozga ko'ra, 2030-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 222,4 trillion so'mga yetadi. Bu 2020-yilga nisbatan 3,2 baravar ko'p. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati 26,4 foizni tashkil etadi.



3-rasm. Namangan viloyatida 2025-2030 yillarga prognoz qilingan investitsiyalar¹

3-rasmda ekonometrik model asosida hisoblangan investitsiya prognozlari keltirilgan. 2025-yilda 69 trln so'mdan boshlangan investitsiyalar har yili barqaror o'sib, 2030-yilga kelib 222 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Olti yil ichida investitsiyalar hajmi 3,2 baravarga oshishi prognoz qilingan.

O'sish sur'ati yildan yilga tezlashib bormoqda. 2025-2026 yillarda o'sish 19 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2029-2030 yillarda bu ko'rsatkich 45 trln so'mga yetadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Bu esa viloyat iqtisodiyotida yig'ma ta'sir (multiplikator effekti) kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Prognoz bandlik, korxonalar soni va aholi daromadlarining o'sishi davom etadi, degan taxminga asoslangan. Agar ushbu omillar rejalashtirilgan darajada rivojlansa, 2030-yilga kelib Namangan viloyati investitsiya salohiyati jihatidan respublika miqyosida raqobatbardosh mintaqaga aylanishi mumkin [12],[13].

Investitsiyalar tarkibi

2024-yilda viloyatda xorijiy investitsiyalar ulushi 65,8 foizga yetdi. Korxonalar va aholi mablag'lari 13,8 foizni, bank kreditlari 7,1 foizni, davlat byudjeti 2,9 foizni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omil bu bandlik ekanligini ko'rsatdi. Bandlikning yuqori elastikligi (19,22) bir necha sabablarga bog'liq. Birinchidan, ish bilan band aholi soni ko'p bo'lgan hududlarda iste'mol talabi yuqori bo'ladi. Bu esa yangi korxonalar ochishni rag'batlantiradi. Ikkinchidan, bandlik darajasi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik ko'rsatkichi sifatida investorlar uchun signal vazifasini o'taydi.

Korxonalar sonining investitsiyalarga ta'siri kichikroq (0,10 elastiklik). Buning sababi, yangi korxonalarining aksariyati kichik biznes subyektlari bo'lib, ularning investitsion imkoniyatlari cheklangan [14]. Aholi daromadlarining ta'siri esa eng kichik (0,04 elastiklik). Bu daromad darajasining nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Xorijiy investitsiyalar ulushining oshishi ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, bu yangi texnologiyalar va boshqaruv tajribasini olib keladi. Ikkinchi tomondan, xorijiy kapitalga qaramlik milliy iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mahalliy investitsion resurslarni rag'batlantirish muhim.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida 15 yillik vaqt qatorining nisbatan qisqaligini va faqat bitta hududning o'rganilganligini ko'rsatish mumkin. Kelgusida barcha viloyatlarni qamrab oluvchi panel ma'lumotlar tahlilini o'tkazish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelingan:

– Namangan viloyatida investitsiyalar hajmi va bandlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,958$). Bandlikning oshishi investitsiyalarni sezilarli darajada oshiradi.

– Ishlab chiqilgan ekonometrik model investitsiyalar hajmining 98 foizini tushuntira oladi va prognozlash uchun ishonchli vositadir.

– 2030-yilga borib asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 222,4 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu 2020-yilga nisbatan 3,2 baravar ko'p.

– Xorijiy investitsiyalarning yuqori ulushi (65,8 foiz) mahalliy investitsion resurslarni faollashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

– Bandlikni oshirish dasturlarini investitsiya loyihalari bilan bog‘lash kerak. Har bir yirik loyiha qoshida kasb-hunar o‘qitish markazlari tashkil etilsa, bandlikka ta’sir kuchayadi.

– Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun imtiyozli kredit liniyalari kengaytirilsin. Xususan, yangi tashkil etilayotgan korxonalariga birinchi 3 yilda soliq imtiyozlari berilishi mumkin.

– Viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan baholash algoritmi asosida investitsiya loyihalarini tanlash tizimi boshqa viloyatlarga ham tatbiq etilsin.

– Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birga, mahalliy investorlarning ulushini oshirish uchun "Mahalliy investorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi" tashkil etilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>

3. Anselin L. Spatial Econometrics // A Companion to Theoretical Econometrics. 2003. Pp. 310-330.

4. Baker S.R., Bloom N., Davis S.J. Measuring Economic Policy Uncertainty // Quarterly Journal of Economics. 2016. Vol. 131(4). Pp. 1593-1636.

5. Rouyendegh B.D., Erol S. Selecting the Best Project Using the Fuzzy ELECTRE Method // Mathematical Problems in Engineering. 2012. Article ID 790142.

6. Khudyakova T., Shmidt A. The Impact of Crisis on the Performance Indicator of Russian Enterprises // International Multidisciplinary Scientific Conferences on Social Sciences and Arts. 2018. Pp. 741-748.

7. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Toshkent: Iqtisodiyot. 2019. 366 b.

8. Ходиев Б.Ю., Ишназарова А.И. Эконометрика. Toshkent: Fan va texnologiya. 2007. 612 b.

9. Zakharov N. Does Corruption Hinder Investment? Evidence from Russian Regions // European Journal of Political Economy. 2019. Vol. 56. Pp. 39-61.

10. Abduralmonova G.Q. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish omillari // Iqtisodiyot va moliya. 2023. №8. 23-35 b.

11. Qulmatov A.A. Investitsion loyihalarni baholashning zamonaviy usullari // Amaliy ekonometrika. 2022. №11. 12-27 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston raqamlarda. Toshkent. 2024.

13. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Namangan. 2024.

14. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. MIT Press. 2010. 1096 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**